



O'ZBEK XALQ KUYI - DILXIROJ

Mamadaliyeva Feruzaxon

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlar va san'at fakulteti

Musiqqa ta'lim yo'nalishi 1-bosqich 101-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq kuyi "Dilxiroj" haqida so'z yuritilgan. Ushbu kuyning kelib chiqish tarixi, ijrochilari va qo'shimcha ravishda raqsiga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ashula, kuy, raqs, ohang, mahorat, ma'naviyat, estetika, ma'rifat, folklor, vocal.

Musiqaning sirli dunyosiga kirgan odam, uning mislsiz ummon ekanligini anglashi muqarrardir. Bu ummon – moziydan sadolanishi, tarix davomida zamon va makon qonuniyatlari negizida shakllanishi, an'analar kamolotida qadr topishi va qadryatlarga aylanishi, jonli ravishda rivojlanib borishi bilan xarakterlanadi.

Musiqqa sohasining azaliy qadryatlaridan zamonaviylik mezonlariga bo'lgan jarayonlarni faqatgina ohanglarda muhrlangan betakror asarlardangina anglash mumkin. Har bir xalqning o'z ma'naviyati, ma'rifati, estetikasi bo'lib, hayot degan jarayonda milliy hamda mahoratli omillar bilan sug'orilib kelingan. Buning negizida ikki ulkan tafakkur yo'nalishlari, ya'ni xalq ommaviy musiqasi va tafakkurning individual ijodiy munosabatlari o'rin olgan.

O'zbek xalq musiqqa san'ati o'zining milliy jarayonlarida o'ziga hos va mukammal darajada shakllangan betakror xalq va mumtoz musiqqa merosiga ega.



O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalar qatorida milliy qadryatlarning ummoni hisoblanmish madaniyat, san'atga ham katta ahamiyat berilmoqda. Qisqa davr mobaynida birgina musiqa san'tining rivoji uchun ko'pgina hayrli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa yosh avlodni milliy ruhda, vatanga sadoqatli qilib tarbiyalash borasida ma'naviy boyliklarning kuchi beqiyosdir.

Ma'lumki, xalq kuyi va ashulalariga talab xalqimiz orasida tobora ortib bormoqda. Ana shunday talab va ehtiyojni qondirish maqsadida yetuk ijrochi mutahasislarni tarbiyalash mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbek xalqining boy musiqa me'rosini o'rganish va uni keng omma ichida targ'ib qilish ishlari san'atimizning jonkuyar tashabbuskorlari, mohir ijrochilari zimmasida bo'lmog'i zarur. Chunki bizning davrimizgacha yetib kelgan ulkan musiqiy me'rosning ustozdan shogirdga bevosita o'tishida tabarruk zotlar ko'proq vazifasini o'tash bilan birgalikda o'zlarining ijodlari bilan ham na'muna bo'lganlar.

Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Shorahim Shoumarov, Matyusuf Harratov, Yunus Rajabiy, Usta Olim Komilov, Jo'rahon Sultonov, To'xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, Imomjon Ikromov, G'anijon Toshmatov, Saidjon Kalonov, Nabijon Hasanov, Muxtorjon Murtazoyev, Doni Zokirov, Komiljon Otaniyozov, Matniyoz Yusupov, Orifxon Hotamov, Fattohon Mamadaliyev, Rasulqori Mamadaliyev va boshqalar ustozdan shogirdga o'tib kelayotgan asriy an'analarni davom ettirib, yangi mazmun, yangi g'oyalar bilan, payvand qila olgan tabarruk zotlardir.

Xalq ijodiyotidagi folklor aytimlari, og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa – maqomlar, akademik vocal va zamonaviy musiqa ijodoyotida o'zida milliy xususiyatlarni to'la namoyon eta olgan san'at turi – an'anaviy xonandalik o'ziga xos aholining ijodiy mahsulidir. U juda qadimgi davrlardan buyon mavjud bo'lib, ushbu ijrochilikda ovoz, nafas, cholg'uning bir biriga hamohangligi, ijroviy tarixi o'ta muhim



ahamiyat kasb etib kelgan. An'anaviy xonandalikning aytim jarayonida ijrochilar yakka, juft, guruhli yoki ommaviy tarkibda kuylashlari an'ana bo'lib kelmoqda.

Mana shunday kuylardan biri "Dilxiroj"dir. Dilxiroj – xiroj – soliq, to'lov ya'ni dilxiroj aynan dilning to'lovi yoki dil (ko'ngil) bilan to'lanadigan boj. Bu so'z aslida fors tojikchada "Dil xarash" ko'ngilni tirnovchi yoki dilning tirnalishi degan ma'nolarni anglatadi. Ammo bazi bir raqs ustalarining aytishicha dilxiroj so'zining ma'nosi "Yurak quli" deb ham yuritiladi. Ya'ni yurakdagi dardni so'z bilan izhor qilish qiyin, faqatgina kuy yoki raqs bilan chiqarish mumkin degan hulosaga borishadi.

Avvalo dilxiroj kuy shaklida ommalshgan. Uning musiqasi uzoq vaqtdan xalqimiz orasida ijro etilib kelinganini aytib o'tish joiz. Bu musiqa bo'lishi haqida ko'pgina og'izdan og'izga o'tib kelayotgan afsonalar mavjud. Shulardan biri bir doirachi yigit go'zal qizni ko'rib unga ishq tushadi. O'z muhabbatini oshkor qila olmay, doirasi orqali bor muhabbatini kuy timsolida ijro etadi. Bu kuyni vaqtlar o'tishi natijasida qanchadan qancha oshiq yigitlar ijro etib uni boyitib borishgan va ko'pgina xalq colg'u asboblari ham qo'shilib borgan, lekin musiqa boshlanishida doira ijrosi saqlanib qolingan. Shu sababli ham bu kuy aniq bir kishi tomonidan yozilmaganligi bois xalq kuyi deb qaraladi.

Taniqli san'at ustasi, O'zbekiston respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor Temur Mahmudov hayotligida dilxiroj ashulasi tarixi to'g'risida shunday fikr bildirgan ekan. "XIX-asrning oxiri va XX-asrning boshlarida to'rt buyuk san'at ustalari yashab ijod qilishgan. Bular Buxoroda domla Halim Ibodov, Samarqandda Hoja Abdulaziz Rasulov, Xo'jandda Sodirxon Xofiz Bobosharifov va Toshkentda Mulla To'ychi Toshmuhammedovlar bo'lishgan. Shu davrlarda Buxoro amiri Amir Olimhon O'rta Osiyodagi eng taniqli san'atkorlarni chaqirib saroyda bazm(festival) o'tkazgan ekan. Bu bazmga to'rt buyuk san'at ustalari taklif etilibdi. Ana endi bazm boshlanibdi. Birinchi bo'lib Xo'jandlik Sodirxon xofiz "Sodirxon ushshoq"ni aytibdi, undan so'ng Samarqandlik xofiz Hoja Abdulaziz "Bozurg'oniy" muhammasini ijro etibdi. Ammo bu



ashula amirga yoqmaq. Shunda amir domla Halimga boshqa biror yaxshirog'ini chaqir debdi. Domla Halim bo'lsa Toshkentlik To'ychi xofizni chaqiribdi. To'ychi xofiz esa "Chorgoh" ashulasini boshlabdiyu, ammo amirning salobati bosganidan ikki uch jumla nariga o'ta olmabdi. Shunda amir "mayli bu ashulangni to'xtatda, boshqa ko'ngilga yoqadiganini ayt" debdi. Shundan so'ng To'ychi xofiz afsonaviy "Dilxiroj" kuyini chalib, Fuzuliyning "Siynaxiroj" deb nomlangan:

Hosilim barqi havodisdan malomat dog'idir,

Masnadim ko'yi malomatda fano tuprog'idir,

Zor ko'nglim tanda zindoni balo dutsog'idir,

Rahim qil, davlatli sultonim muruvvat chog'idir.

misralari bilan boshlanuvchi she'rini ijro etibdi. Shundan so'ng amirni g'azabi bosilib Xofizga ko'p sovg'a salomlar berib javob bergan ekan. Shundan so'ng dilxiroj kuyiga Fuzuliy g'azalini ijro etish an'anaga aylangan. Mana xozir ham bu ashula turli xalq ardog'idagi xofizlar tomonidan ijro etilib kelinmoqda".

Dilxiroj raqsiga keladigan bo'lsak ko'pchilik uning birinchi ijrochisi N.Shermatov deb o'ylashadi, ammo bunday emas. Bu raqs asl holida O'zbekiston respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi Abdug'affor Qodirov tomonidan ijro etilgan va ko'pgina xarakatlarni xalq raqslaridan olgan.

Dilxiroj raqsida kiyiladigan liboslar ham o'z ahamiyatiga ega. Bu liboslar raqs jarayonida ma'lum bir ma'nolarni beradi, hamda raqsning boyishiga sababchi bo'ladi. Bu raqsda raqqos boshiga Farg'onacha do'ppi va uning ustidan peshona bandiga kichik qiyiqcha bog'laydi. Qiyiqchaning bog'lanadigan tomoni har doim chap tomonda bo'ladi. Kichkina qiyiqcha peshina bandga bog'lansa, katta qiyiqcha esa belga, beqasam yengil to'n ustidan bog'lanadi. Raqqos egniga oq yaktak va to'n kiyib, to'nning o'ng yengini kiymasdan qayirib belbog'iga qistirib qo'yadi. Oyog'iga esa naqshinkor yengil



etik kiyadi. Bu etikning naqshinkorligi sababi shundaki, o'zbek xalqining juda e'tiborli ekanini, oddiygina oyoq kiyimiga ham did bilan naqsh solishi, bu xalqning estetik qarashlari yuqori darajada ekanidan. Mana shunday boy ma'nolarga ega bo'lgan liboslar dilxiroj raqsiga yanada ko'rk bag'ishlab har tomonlama mukammal va serjilo bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugunga kelib ham o'zbek xalq kuyi dilxiroj o'zinig asl holatini yo'qotmagan holda yosh raqqoslarimiz, ashulachilarimiz tomonidan ijro etib kelinmoqda. Bu esa uning maftunkorligini, jozibadorligini saqlab qolganidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Jabborov, S. Begmatov, M. A'zamova "O'zbek musiqasi tarixi" Toshkent-2018
2. R. Qosimov "An'anaviy ijrochilik" Toshkent-2007
3. N. Shermatov "Raqs" uslubiy qo'llanma 2017-yil
4. M. Mirabdullayev "An'anaviy xonandalik" Namangan-2022